

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA XALQONA OHANG

Abdumo'minova Tursunoy Raxmonberdi qizi,
O'zMU birinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda XX asrning 80-yillarida o'z individual uslubiga ega bo'lgan Muhammad Yusuf lirikasida insonning ichki kechinmalarini, xayolotini, ona yurtga, oilaga muhabbatini, bir so'z bilan aytganda, insondagi barcha nozik his-tuyg'ularini, bir-birini takrorlamas go'zal tashbehlar, istioralar, jonlantirishlar kabi badiiy vositalar bilan ifodalalanishi, shuningdek, xalqona uslub, badiiy vositalarning qo'llanishi, xalqona tafakkur va milliylikning uyg'unligi, shoir mahoratining she'riyatda aks etishi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birgalikda, Muhammad Yusufi ijodida mazkur she'riy san'atlar bilan birgalikda haqiqiy o'zbek xalqiga xos bo'lgan odamiylik, soddalik, mehnatkashlik, mehribonlik, halollik kabi fazilatlar, umuman olganda, xalqona manzaraning o'ziga xos tasviri ochib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: hayotiylik, xalqonalik, ijod, uslub, she'riyat, poetika, milliylik, ohang, lirika, individuallik.

Annotation: This thesis discusses the expression of human inner experiences, imagination, love for the homeland, family, in short, all the subtle feelings of a person in the lyrics of Muhammad Yusuf, who had his own individual style in the 80s of the 20th century, through artistic means such as unique beautiful allegories, metaphors, and animations, as well as the reflection of the folk style, the use of artistic means, the harmony of folk thinking and nationality, and the poet's skill in poetry. At the same time, in the work of Muhammad Yusuf, along with these poetic arts, such qualities as humanity, simplicity, hard work, kindness, honesty, and in general, a unique image of the folk landscape are revealed.

Key words and phrases: vitality, nationalism, creativity, style, poetry, poetics, nationality, melody, lyrics, individuality.

Kirish. XX asr o'zbek she'riyati bir qator qalami o'tkir, adabiyotda o'z so'zini ayta oladigan shoirlarni, nosirlarni, dramaturglarni yetkazib berdi. Masalan, nasrda Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammadni, lirikada Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyevani, dramaturgiyeda esa Sharof Boshbekov, Erkin A'zam singari ijodkorlar qalam tebratdi. Ularning ichida shoirlardan o'zining she'r yaratishdagi mahoratiga ega bo'lgan, ayniqsa, uning poetikasida xalqonalik ustunlik qilgan, milliylikni ko'rsatib bergan shoirlardan biri Muhammad Yusufdir. Muhammad Yusuf Andijon viloyati Marhamat tumanida tug'ilgan bo'lib, o'zidan bir qator "Tanish teraklar", "Bulbulga bir gapim bor", "Ishq kemasi", "Bulbulda bir gapim bor" kabi abadiy barhayot asarlar qoldirgan. "Vatanim", "Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar", "Xalq bo'l, elim", "Yoshlar madhiyasi" kabi she'rlarida uning milliyligini, xalqonalikning yuksak namunasi ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Lirika (yunoncha - musiqa asbobi, qadimda she'rlar uning jo'rligida aytilgan) badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. Lirikada voqelik lirik

sub'yekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi. Lirikada tasvir predmeti his-tuyg'u, kechinma bo'lib qoladi. ¹ Shoir Muhammad Yusuf lirikasini tahlil qilar ekanmiz, uning har bir she'ridagi har bir misra alohida e'tibor berishni taqazo qiladi, uning har bitta jumlasidan milliylik, an'anaviylik nafasi keladi. Shuni aytish mumkinki, ularning mohiyatini anglash o'zbek kitobxonlari uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Misol uchun, shoirning "O'zbekiston" she'ri vatanimizni to'la madh etgan bo'lib, qalbida vatan tuyg'usi bor bo'lgan har bir odam iftixor, g'urur tuyishi hech gap emas. Dastavval, shoir she'rda o'z vatanini har kimning eng yaqin kishilari hisoblangan insonlarga - ota-onaga mengzash bilan boshlaydi. Chunki shu o'rinda ko'rishimiz mumkinki, vatan ona kabi mushfiq, mehribon bo'lishi barobarida ota kabi tayanch, Zulfiyaxonim ta'biri bilan aytganda "orqa tog'dir". Shuning uchun ham Muhammad Yusuf ushbu asari mobaynida xatto O'zbekistonning soyasiga jonini to'shshga ham tayyor ekanligi bilan davom ettiradi. Ushbu misralar kitobxonga bevosita o'tmishda yurtimiz uchun qahramonlarcha halok bo'lgan ajdodlarimizni yodga solsa ne ajab. Shuningdek, keyingi qatorlarda she'rning ohangi yuqori pardalarga ko'tarilib, ona yurtining tasvirini yana ham yuqoriroq, yana ham yuksakroq tasvirlaydi:

Sendek mehribon yo'q,

Seningdek ko'rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga.

Yuqoridagi qatorlarda qalamkash qaysidir ma'noda tazod vositasida go'zal ma'no ifodalab, dunyodagi eng maftunkor shahar hisoblangan Rimni bittagina yurtining bedapoyasiga alishmasligini faxr bilan aytadi. Shu bilan bir qatorda, Parijning eng go'zal restoranlarini o'zbek tandirdan afzal bilmasligi, bahor faslida baxmalda tug'ilgan qo'zini arab ohusidan ustun ko'rishi vatanparvarlik go'yalari bilan uyg'unlashgan bo'lib, qarshilantirish san'atining yuksak namunasi. Nazarimizda, mana shu kabi tabiiy, hech qanday mubolag'asiz so'zlar zanjiri, sodda va jo'n usulda yozilgan she'r har bir so'zida inson ko'ngil torining eng nozik iplarini cherta oladigan xalqona ohangga aylana oladi.

"Muhammad Yusuf ijodi haqida gap ketganda ko'pincha uning qo'shiqlarini tilga oladilar. U qo'shiq yozgan ham, o'zini qo'shiqchi shoir deb tan olgan ham emas. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb mavzuda o'ta jiddiy, ammo xalq diliga shu qadar yaqin va ravon tilda yozilgan. Shuning uchun ham hofizlar ularni qo'shiqqa solib, elga tanildilar. Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarni yig'latdi, kuldirdi"², - deydi O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov. Haqiqatan ham, shoir xoh vatan

¹ D. Quronov. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akadennashr nashriyoti. 2010.

² Muhammad Yusuf. Xalq bo'l, elim. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

haqida, xoh muhabbat, xoh oila to‘g‘risida qalam tebratmasin baribir soddalik, xalqonalik, sof tuyg‘ular alanganayotgani bilinib turadi.

Muhammad Yusuf “O‘zbek haqida ballada” she‘rida uchraydigan “Dunyoda bolam deb yashaydi o‘zbek”, “Bir yelkada ketmon, birida iymon”, “O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa uningchun”, “Tosh o‘tmas qo‘rg‘onga o‘xshaydi o‘zbek” misralarida ham o‘zbek xalqining oddiy kundalik tarzini qaysidir ma‘noda haqiqiy san‘at asaridek tasvirlaydi. Shoir aksariyat she‘rlarida hayotiy voqea-hodisalar, holatlar tasviri zamirida o‘zining asosiy fikrlarini ochishga harakat qiladi. Shu o‘rinda shoirning poetik tafakkuri g‘oyat keng ekanligini ta‘kidlash zarur. Negaki hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga teran nigoh bilan qarashga, ularning tub mohiyatini anglashga intiladi. “Yozuvchi badiiy talantining o‘lchovi” (Ch.Aytmatov) bo‘lgan badiiy mahorat shoirning o‘zida millatning ruhini, dard-tashvishlarini, kechinmalarin ifodalagan har bir satrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Muhammad Yusuf lirikasi hech qachon murakkab so‘zlar, tuyg‘ular, kechinmalar borasida gapirmaydi, aksincha, yurakdan chiqqan va yurakka yetib boradigan jumlar bilan o‘z asarlarini boyitadi. Shoirning o‘zi yosh shoirlar bilan bo‘lgan suhbatlarining birida vatan haqida yaxshi va ko‘p yozmagan shoir haqiqiy shoir bo‘la olmasligi haqidagi fikrlarni aytib o‘tadi. O‘zi esa vatanparvarlik lirikasi bilan buning namunasi ko‘rsata oladi:

Menga yering suyuk,
Osmoning suyuk
Boqsam, teng to‘rttala,
Tomoning suyuk.
Tovonimga kirgan tikoning suyuk,
Kaftdan zirapchang ham olmay
Sevaman.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ishidan shunday xulosa qilamizki, Muhammad Yusufning lirikasida milliylik ifodasi quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Muhammad Yusufning lirikasida milliy urf-odatlarining ifodalanishi “O‘zbek”, “O‘zbekiston”, “Bobodehqonim”, “Oq tulporim” she‘rlarida ko‘rinadi.
2. Milliy ruhni xalqimizning shonli tarixidan foydalangan holda ifodalanganini “Vatanim”, “ Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor”, “Navoiy”, “Ajab dunyo” singari lirik asarlarida ko‘rishimiz mumkin.
3. Xalqona ifoda “Qizil olma”, “Ota uy”, “O‘zbek qizlari” she‘rlaridagi til birliklari, o‘ziga xos o‘zbekona so‘zlar orqali tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D. Quronov. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akadernashr nashriyoti. 2010.
2. Muhammad Yusuf. O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 2000.
3. Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l, elim. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000.
4. Zulfiya. Adabiy o‘ylar – Toshkent. Fan nashriyoti, 1985.